



IJTIMOYIY GUMANITAR FANLARNING RIVOLANISH MUAMMOLARI

Maxmudova Fotima Shamshidinovna

Fotima.mahmudova1@icloud.com

TAFU “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi”

kafedra o‘qituvchisi

Danabayeva Diyora

TAFU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14783965>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Fanlarning moliyaviy ta‘minotdagi yetishmovchiliklari, globallashuv sharoitida mahalliy qadriyatlarining yo‘qolishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy yutuqlarni keng targ‘ib qilmaslik kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, fanlararo integratsiya va tadqiqotlarning amaliyotga tatbiq etilishidagi kamchiliklar muhokama qilinadi. Muallif ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarbligini oshirish uchun texnologik yangiliklarni joriy qilish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va ilmiy natijalarni real hayotga tatbiq etish bo‘yicha takliflarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-gumanitar fanlar, moliyaviy ta‘minot, globallashuv, mahalliy qadriyat, zamonaviy texnologiyalar, fanlararo tadqiqot, ilmiy integratsiya, milliy madaniyat, ilm-fan taraqqiyot.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-gumanitar fanlar jadal rivojlanayotgan globallashuv, raqamli texnologiyalar va jamiyatning tez o‘zgaruvchan ehtiyojlari ta‘sirida turli sinovlarga duch kelmoqda. Ularning ahamiyati faqat nazariy o‘rganish bilan cheklan-may, amaliyotda ham jamiyatning turli masalalarini hal qilishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yildan 2024-yilgacha bir

qator muhim qaror va islohotlarni amalga oshirdi. Bu davr mamlakatni yangilash, modernizatsiya qilish va barcha sohalarida jadal islohotlar olib borish bilan ajralib turdi.

Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma‘naviy dunyosi, kasb mahoratiga bog‘liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g‘oyani, yuksak ma‘naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, ularni Vatan, xalq va istiqloq taqdiri uchun g‘oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma‘naviyatli komil inson bo‘lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma‘naviy yuksalishi yo‘lida “O‘zbekiston tarixi” fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari hamda maktablarda o‘qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar – inson, jamiyat, madaniyat, tarix va ma‘naviyat bilan bog‘liq bo‘lgan turli jarayonlarni o‘rganadigan fanlar majmuidir. Bu fanlar inson hayoti, uning qadriyatlari, intellekti va jamiyatdagi o‘rnini chuqur anglashga xizmat qiladi. Ular asosan insoniyatning intellektual va ma‘naviy taraqqiyotini o‘rganadi va targ‘ib qiladi.

Boshlang‘ich ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlar bolalarda shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu fanlar bolalarni jamiyatning ma‘naviy va madaniy qadriyatlari bilan tanishtiradi, ularning dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid yo‘nalishlar bor. Ular:

1. Odobnoma va axloqiy ta‘lim: Bolalarga odob-axloq qoidalari, insoniylik va boshqa madaniy qadriyatlarni o‘rgatadi.

2. Tarixiy bilimlarning asoslari: Milliy tariximizdan sodda va qiziqarli ma‘lumotlar orqali bolalarga ajdodlarimiz merosini tanishtirish. Qahramonlik va mehnat qadriyatlarini bolalar ongiga singdirish.

3. Atrof-muhit va jamiyatni o‘rganish: Bolalar jamiyatdagi ijtimoiy rollar, milliy bayramlar va an‘analar haqida bilim olishadi. Atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatni his qilishni o‘rgatadi.

4. Til va adabiyot orqali ma‘naviyatni shakllantirish: Ona tili va o‘qish darslari orqali bolalarda tilga muhabbat va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi. Adabiyot bolalarda tasavvur qilish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyat hayotining turli jabhalarini o‘rganish, insoniyatning madaniy va axloqiy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu sohaning taraqqiyoti turli



muammolarga duch kelmoqda. Quyida ushbu fanlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari:

1. Moliyaviy ta'minotning yetishmasligi

Ko'plab mamlakatlarda ilm-fan sohasiga ajratiladigan mablag'larning asosiy qismi tabiiy va texnik fanlarga yo'naltiriladi. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. O'qituvchilar va tadqiqotchilarning moddiy rag'batlantirilmashligi, ilmiy loyihalarga yetarli e'tibor qaratilmashligi mazkur fanlarning mavqeini pasaytiradi.

2. Globallashuv va mahalliy qadriyatlarining yo'qolish

Globalashuv jarayonida mahalliy madaniyat va qadriyatlar chet el madaniyatining ta'siri ostida yo'qolib borishi kuzatilmog'da. Bu ijtimoiy-gumanitar fanlarga bo'lgan ehtiyojni pasaytirishi mumkin.

Yechim: Milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarbligini targ'ib qilish, ilmiy-tadqiqot ishlari orqali milliy qadriyatlarni mustahkamlash kerak.

3. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi

Texnologiyalar rivojlanayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy-gumanitar sohalarida ularning qo'llanilishi past darajada qolmoqda. Bu esa yangi bilimlarni kashf etishda va ularni keng ommaga yetkazishda qiyinchilik tug'diradi.

Yechim: Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayonlariga joriy etish, onlayn platformalarda kurslar tashkil qilish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

4. Fanlararo tadqiqotlarning cheklanganligi

Ijtimoiy-gumanitar fanlar boshqa fanlar bilan integratsiya qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa zamonaviy masalalarni yechishda muammolarni chuqur anglashga to'sqinlik qiladi.

Yechim: Fanlararo tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, tabiiy va texnik fanlar vakillari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

5. Ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq qilinmasligi

Ko'plab ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar faqat nazariy ahamiyat kasb etib, real hayotda qo'llanilmay qoladi. Bu esa ushbu fanlarning jozibadorligini kamaytiradi.

«Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta. Afsus, bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda. Xususan, biz uchun nihoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada, olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealar mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda.

Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz zarur: milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqishimiz vaqti-soati keldi, deb o'ylayman. Tarix institutini bu fanni rivojlantirish bo'yicha tayanch ilmiy muassasa etib belgilash kerak», degan fikrlar keltirilgan.

Shuningdek, ijtimoiy fanlarni o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda olimlar va soha mutaxassislarini moddiy rag'batlantirish, ularning mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash talab etilishini ta'kidlab, Fanlar akademiyasi qoshidagi «Eng yangi tarix» markazi xodimlarining oylik ish haqi miqdorini ilmiytadqiqot instituti xodimlari maoshiga tenglashtirib, uning faoliyatini kuchaytirish kerakligi qayd etilgan.

Sohani rivojlantirishda o'quv adabiyotlarining sifatiga e'tibor qaratilmog'da. Tarix faniniga oid darsliklar yaratishda nazariy- metodologik jixatlariga aloxida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni, xolislik tamoyili asosida tarixiy voqea- xodisalarni xolis, tarixiy faktlarga asoslanib, ro'yi rost ochib berish, xech qanday uydirma yoki bo'rttirishlarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Voqea- xodisalar Ilmiy asoslangan , tarixiy faktlarga tayangan xolda ochib beriladi. O'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari



sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda muhim omil hisoblanadi.

Qisqacha qilib aytganda ma'naviyatli, tafakkuri boy, dunyoqarashi keng xalq boshqaruvidagi davlat xech qachon tanazzulga yuz tutmaydi. Zero bunday xalqning tarixi buyuk, ma'naviyati yuksak bo'ladi.

Xulosa

Ijtimoiy-gumanitar fanlar insonning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Ushbu fanlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ilmiy tahlil qilish va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, ular milliy qadriyatlarni asrash, madaniy merosni targ'ib qilish va yangi avlodni tarbiyalashga katta hissa qo'shadi. Hozirgi zamon talablari asosida ijtimoiy-gumanitar fanlarni rivojlantirish quyidagi natijalarga olib kelishi kutiladi: Fuqarolar ongida ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyat hissi ortadi. Jamiyatda madaniy savodxonlik, bag'rikenglik va vatanparvarlik kuchayadi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan ilmiy yondashuvlar shakllanadi. Shunday qilib, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivoji jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, uning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi va dolzarb masalalar yechimida faol qo'llanishi muhimdir..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov, I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Mirziyoyev, Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. G'afurov, B. G. "Falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlarning zamonaviy rivoji". Toshkent: Ma'naviyat, 2019.